

OG'IR METALL TUZLARINING KALAMUSHLAR ORGANIZMIGA TA'SIRI.

Ma'rufjonova N^{1.}, Tojikulova O.J^{2.}, Qodirova N.E^{3.}

¹Samarqand Davlat Universiteti 4-kurs talabasi,

²Samarqand davlat Universiteti PhD, dotsenti.


³ZARMED universiteti o'qituvchisi.
+998990928126

otojikulova_81@mail.ru

Maqolada Cd²⁺ tuzi bilan zaharlangan kalamush qon korsatkichlari o'rganilgan. Cd²⁺ tuzlari ta'sirida 14 kun davomida intoksikasiya qilingan kalamush tana vazni, qon ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlarni o'rgandik. *In vivo* tajribalarida aniqlanishicha, organizmning og'ir metall tuzlari bilan zaharlanishi kalamush tana vazni, qon ko'rsatkichlari o'zgarishlariga olib kelishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: *In vivo*, og'ir metallar, intoksikasiya, tana vazni, qon ko'rsatkichlari. Oziq-ovqat mahsulotlari tarkibining, shuningdek ichimlik suvining mineral o'g'itlar, zaharli moddalar, og'ir metallar bilan ifloslanishi, bundan tashqari ksenobiotiklarning odam va hayvonlar organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mutaxassislarni tashvishga solmoqda. Alohida qayd qilib o'tish kerakki, tuproq va suv tarkibida, jumladan ichimlik suvlari tarkibida ko'pincha holatlarda mineral tuzlar miqdorining me'yorida ortiq darajada bo'lishi, shuningdek organik birikmalar mavjudligi qayd qilinadi. Og'ir metallar atrof-muhitning ekologik jihatdan ifloslanishida xavfli manbalardan biri hisoblanib, organizmga tushishi natijasida kuchli genotoksik, o'sma kasalliklarni keltirib chiqaruvchi va sitotoksik ko'rinishdagi salbiy ta'sirlarni namoyon qiladi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kadmiyni ko'p miqdorda iste'mol qilish ishtahani pasayishiga, kamqonlikka, yomon o'sishga, homilaning nobud bo'lishiga olib kelishi mumkin. Kadmiyni haddan tashqari ko'p iste'mol qilish hayvonlarda sink va mis metabolizmini o'zgartiradi.

Tajribalar uchun tana og'irligi 250 g bo'lgan kalamushlar tanlanib, kattaligi 50x30x28 sm bo'lgan plastmassa kataklarda, havo almashib turadigan yorug' xonada saqlandi. Xonaning harorati 20-260 C⁰ ni, nisbiy namligi esa 40-60 % ni tashkil etdi. O'g'ir metall tuzlari ta'sirida kalamushlar organizmi o'zgarishini o'rganish uchun tajribalar 90 kunlik kalamushlarda olib borildi. CdS tuzi tajriba hayvonlariga og'iz orqali ovqat bilan 14 kun mobaynida kuniga 1 martadan 250 mkg/kg tana vazniga ko'ra berildi. Og'ir metal tuzi hayvonlarga 14 kun berilgandan so'ng tajriba o'tkazildi. Tajriba Samarqand davlat universiteti qoshidagi biovivariy laboratoriyasida olib borildi. Tajriba o'tkazilishidan oldin kalamushlar tana vazni tarozida o'lchandi hamda og'ir metal berish jarayonida ham ularning og'irligi tarozida tortilib borildi. Tajriba uchun kalamushlar qoni maxsus probirkalarga olinib, universitet vivariy laboratoriyasida ECL 760 Filly avtomat Hayemostasis analyser analizatorida tahlildan o'tkazildi.



1- Rasm. CdS tuzi ta'sirida kalamushlar tana massasining o'zgarishi (gramm o'lchov birligida).

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, og'ir metall tuzi (CdS) kalamushlarning tana vazniga ham ta'sir ko'rsatib, ularning tana vaznini nazorat guruhiga nisbatan kamaytirganligi kuzatildi (1-rasm). Og'ir metal tuzlari bilan zaharlangan kalamushlar qoni tarkibidagi gemoglobin miqdori sog'lom kalamushlarga nisbatan kamayganligi aniqlandi. Xulosa qilib aytish mumkinki, og'ir metallar kalamushlar tana vazniga, ularning qon ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi o'rganildi.